



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart-aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ	109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова	
КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ	115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.	
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ.....	119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин	
ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА.....	129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы	
KORXONANING IQTISODIY SALONIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI	134
Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li	
РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ	139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна	
OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov	
HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI	150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo	
TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI	155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov	
NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI	162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich	
YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI.....	167
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА.....	172
Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилович	
AMIR TEMURNING IJTIMOY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI	176
Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ В КОНТЕКСТЕ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ.....	181
Убайдуллаев Сирожиддин	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI	186
Fazilat Esirgarpovna Jomonqulova, Nizomov Murod, Madinabonu Temirova Otabek qizi	
ПОТРЕБИТЕЛЬСКАЯ КОРЗИНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ	191
Ишонкулова Феруза Асатовна, Ибрагимова Ширин	



IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI	195
Abdukaxxorova Durdona Iloxomovna, Muhabbat Hakimova Fayziyevna	
YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI VA UNING RIVOJLANISHI.....	201
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, Abdullayev Izzatbek Akramxon o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	206
Латилов Ашур Али Рустам угли, Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович	
ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	212
Латилов Ашур Али Рустам угли, Нарбаев Жандарбек Агабекович, Собирова Мадинабону Санджаровна, Эгамкулов Шохжапон Куниш угли	
YASHIL LOGISTIKA LOYIHALARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	218
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi, Adashaliyev Miraziz Mirzohidjon o'g'li	
INVESTITSIYALARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BARQAROR O'SISHGA TA'SIRI.....	225
Yarboeva Farida Ulug'bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ДИНАМИКА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ВХОЖДЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО	230
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Иванян Михаил Михайлович	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIG'INING FISKAL AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	234
Otabek Jalolov, Abdurashidov Abdusamad	
YEVRONA YASHIL BITIMI VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.....	240
Xamitillayeva Jasmira Jaxongir qizi, Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	



YEVROPA YASHIL BITIMI VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:

Ataniyazov Jasurbek Xamidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Xalqaro moliya kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yevropa Yashil Bitimi (European Green Deal – EGD) hamda uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada EGD doirasida Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadlari — energiya samaradorligini oshirish, karbon chiqindilarini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, shuningdek sanoat, transport va qishloq xo'jaligi sohalarida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishlar yoritilgan. Bundan tashqari, EGD doirasida European Investment Bank (EIB) tomonidan O'zbekistonga yo'naltirilayotgan investitsiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: EGD, barqaror moliya, yashil investitsiyalar, iqlim neytralligi, karbon chiqindilari, energiya samaradorligi, yashil obligatsiyalar, moliyaviy instrumentlar, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, xalqaro moliya institutlari, EIB.

Abstract: This article examines the European Green Deal (EGD) and its impact on the economy of Uzbekistan. It highlights the key objectives of the European Union within the framework of the EGD, including improving energy efficiency, reducing carbon emissions, promoting renewable energy sources, and ensuring environmental sustainability across industry, transport, and agriculture. Furthermore, the paper analyzes investments directed to Uzbekistan by the European Investment Bank (EIB) within the EGD framework.

Key words: EGD, sustainable finance, green investments, climate neutrality, carbon emissions, energy efficiency, green bonds, financial instruments, environmental sustainability, renewable energy, international financial institutions, EIB.

Аннотация: В данной статье анализируется Европейский зелёный курс (European Green Deal – EGD) и его влияние на экономику Узбекистана. Также рассматриваются ключевые цели Европейского союза в рамках EGD, включая повышение энергоэффективности, сокращение выбросов углерода, развитие возобновляемых источников энергии, а также обеспечение экологической устойчивости в промышленности, транспорте и сельском хозяйстве. Кроме того, проводится анализ инвестиций, направляемых в Узбекистан European Investment Bank (EIB) в рамках EGD.

Ключевые слова: EGD, устойчивое финансирование, зелёные инвестиции, климатическая нейтральность, углеродные выбросы, энергоэффективность, зелёные облигации, финансовые инструменты, экологическая устойчивость, возобновляемая энергия, международные финансовые институты, EIB.

KIRISH

EGD zamonaviy global iqtisodiy siyosatning eng muhim tashabbuslaridan biri hisoblanadi. Ushbu strategiya EU tomonidan 2050-yilga borib iqlim neytralligiga erishish, ya'ni issiqxona gazlari chiqindilarini minimal darajaga tushirish maqsadida ishlab chiqilgan dastur bo'lib, yashil bitim nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki iqtisodiy o'sishni barqaror va resurs tejamkor model asosida qayta shakllantirishga qaratilgan [2].

Mazkur tashabbus energetika, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va moliya tizimlarini tubdan transformatsiya qilishni nazarda tutadi. Xususan, EGD qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, CO₂ chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va "yashil" texnologiyalarni joriy etish kabi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, Ittifoq tomonidan uglerod chegaraviy mexanizmi (CBAM) kabi vositalarning joriy etilishi tashqi savdoda atrof-muhitga oid me'yorlarning yanada qat'iyloviga olib kelmoqda.



Natijada, Yevropa bozoriga kirishda mahsulotlarning uglerod chiqindilari darajasi, energiya samaradorligi hamda ekologik standartlarga muvofiqligi asosiy mezonlar sifatida shakllanmoqda.

EU O'zbekistonning muhim savdo hamkorlaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, "yashil" transformatsiyaga qaratilgan islohotlar sharoitida eksport tarkibida sanoat mahsulotlari va xomashyo ulushi yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun yangi ekologik talablarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shuningdek, EGD doirasida belgilangan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarorida nazarda tutilgan maqsadlarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [3].

Xususan, EGD doirasida EIB tomonidan EU–Central Asia Summit doirasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq, O'zbekiston bilan hamkorlikda barqaror transport, suv boshqaruvi va iqlim chidamliligi loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun umumiy miqdorda 365 mln yevro sarmoya ajratish ma'qullangan [www.eeas.europa.eu]. Mazkur tashabbuslar mamlakatimizda ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, EGD O'zbekiston uchun ham majburiyatlar, ham imkoniyatlar yaratadi. Bir tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qo'shimcha xarajatlar va moslashuv zarurati yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, yashil iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, EU tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy va texnik yordam dasturlari O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, EGD global iqtisodiy tizimda yangi qoidalarni shakllantirmoqda. Ushbu jarayon O'zbekiston uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning tashqi savdo siyosati, sanoat rivoji va ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyoda yashil iqtisodiyot tushunchasi tobora kengayib, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan global strategiyalar markaziga aylanmoqda. Xususan, Anadolu Ajansi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda issiqxona gazlari (GHG) chiqindilarining mintaqalar bo'yicha taqsimlanishida yetakchi o'rin Xitoyga tegishli bo'lib, uning hissasi 27 foizni tashkil qiladi. Keyingi o'rinlarda AQSh (11 foiz), Hindiston (7 foiz) va Yevropa Ittifoqi (27 ta davlat, 6 foiz) joylashgan. Ushbu to'rt hudud birgalikda global chiqindilarning deyarli 51 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, "boshqalar" guruhi, ya'ni boshqa mamlakatlar hissasiga global chiqindilarning 49 foizi to'g'ri keladi, bu esa ekologik inqirozning butun dunyo bo'ylab jiddiyligini ko'rsatadi [14]. Ushbu holat mintaqaviy darajadagi hissadorlikni iqlim o'zgarishi sharoitida aniqlashning muhimligini ta'kidlaydi hamda turli mintaqalar tomonidan karbon neytrallikka erishish bo'yicha qo'llanilayotgan strategiyalarni solishtirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish borasida dastlab xalqaro miqyosda yirik tashkilotlar yashil iqtisodiyotning rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan holda barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg'unlashtiruvchi strategiyalarni ilgari surgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) inklyuziv yashil iqtisodiyot yondashuvini ilgari suradi va bu orqali inson farovonligini oshirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash hamda atrof-muhit xavfini kamaytirishga qaratilgan strategik choralarni amalga oshirib kelmoqda. BMT tomonidan ishlab chiqilgan "Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development" hujjati 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun global yo'l xaritasini belgilaydi. Strategiyada 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi (SDG) orqali iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ushbu strategiya mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar uchun barqaror rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda metodologiya sifatida xizmat qiladi. BMT yondashuvi sohalar kesimida toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish va yashil transportga e'tibor qaratadi, shuningdek, hududiy strategiyalar va institutsional mexanizmlarni (quvvatni oshirish va texnologiya transferi) amalga oshirishga alohida ahamiyat beradi [1].

Shuningdek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan EGD mamlakatlararo ilgari surilgan iqlim neytralligiga erishish bo'yicha ilk kompleks strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur hujjatga muvofiq, 2030-yilgacha Yevropa Ittifoqida issiqxona gazlari chiqindilarini 1990-yil darajasiga nisbatan kamida 55 foizga qisqartirish hamda 2050-yilgacha to'liq iqlim neytralligiga erishish asosiy maqsad etib belgilangan [2].

K. Aronoff va hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "Yashil yangi bitimlar" (Green New Deals – GND) konsepsiyasi iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarga qarshi kurashishda davlatlar, fuqarolik jamiyati hamda xususiy sektorni jalb etuvchi keng qamrovli siyosiy chora-tadbirlar majmuasi sifatida shakllangani ta'kidlanadi [4]. Ko'plab holatlarda bu bitimlar yirik miqdordagi investitsiyalarni talab etadi va mamlakatda yashash sharoitlarini ekologik maqsadlar doirasida rivojlantirishga qaratiladi.

C. Zografos va P. Robbins tadqiqotlarida EGD Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotini resurslardan samarali foydalanishga asoslangan hamda texnologik jihatdan rivojlangan modelga o'tkazishga qaratilgani ta'kidlanadi



[5]. Shu bilan birga, mualliflar EGD doirasidagi asosiy yondashuvlar uning ijtimoiy va ekologik oqibatlarini yetarlicha hisobga olmayotganini qayd etadi, xususan, Yevropadan tashqaridagi hududlarda “yashil qurbonlik zonalari”ning shakllanishi ehtimoli mavjudligini ilgari suradi.

M. Leonard, P.-F. Jean, J. Shapiro, S. Tagliapietra va G. Wolff tadqiqotlarida EGD global miqyosda geosiyosiy ahamiyat kasb etuvchi strategiya sifatida baholanib, u orqali Yevropa Ittifoqi nafaqat iqlim siyosatini kuchaytirish, balki xalqaro savdo, investitsiya va texnologik yetakchilik sohaslarida o'z mavqeini mustahkamlashga intilayotgani ta'kidlanadi [6].

M. Aji, R. Mastini va K. Tienhaara tadqiqotlarida qayd etilishicha, butun dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishiga qarshi “yashil” Keynes yondashuvlari siyosatchilar hamda ekologik guruhlar tomonidan faol ilgari surilmoqda. Ushbu yondashuvlar davlatning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, keng ko'lamli davlat investitsiyalarini jalb etish va yashil ish o'rinlarini yaratish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan [7–9]. Shu bilan birga, ularning mazmuni va amaliy qo'llanilishi turli mamlakatlarda mavjud siyosiy sharoit, institutsional imkoniyatlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mos ravishda shakllantiriladi.

K. Moesker va U. Pesch kabi tadqiqotchilar EGDning iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan jihati mavjud tengsizliklar va ijtimoiy adolatsizliklarni yanada kuchaytirish xavfini yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidlaydi [10].

Yashil bitimlar nafaqat Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Kanadada muhokama qilinib, mamlakatlar siyosatining markazida bo'lgan, balki boshqa qit'a mamlakatlarida ham bu borada tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, K. Yoon tadqiqotida Janubiy Koreyada post-COVID-19 davrida “Yashil yangi bitim” konsepsiyasi iqtisodiy tiklanishni ta'minlash, raqamli va ekologik transformatsiyani jadallashtirish hamda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida talqin etilgan [11].

L. Zhang ta'kidlashicha, Xitoy issiqxona gazlari (GHG) chiqindilarida yetakchi mamlakat sifatida ajralib turadi. So'nggi yillarda uning chiqindilari sezilarli darajada oshgan bo'lib, 2020-yilda dunyoning chorakdan ortiq (25 foizdan yuqori) issiqxona gazlari chiqindilari Xitoyga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi chiqindilarini kamaytirishga muvaffaq bo'lib, bu uning ekologik tashabbuslari samaradorligini ko'rsatadi [12]. Xitoy ham issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish va karbon neytrallikka erishish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirishi lozim.

Mahalliy iqtisodchi olim J. Ataniyazov o'z ilmiy ishlarida global iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy tizimlar rivojlanishini tahlil qilgan bo'lib, unda zamonaviy sharoitda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda xalqaro tashabbuslarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Xususan, olim global moliya tizimidagi o'zgarishlar, barqaror rivojlanish omillari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning rolini chuqur o'rganib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda innovatsion va ekologik yo'nalishlarning ustuvorligini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, European Green Deal (EGD) ham zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanib, u orqali yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va investitsion muhitni yaxshilash imkoniyatlari kengayishi asoslab beriladi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot EGD va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida sifat va miqdoriy usullar uyg'unligi qo'llanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlar, rasmiy hisobotlar va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida tahliliy hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, induktiv va deduktiv tahlil usullari orqali EGD siyosatining O'zbekistonning energetika, sanoat va qishloq xo'jaligi sohaslariga potensial ta'siri aniqlanib, umumiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqining yashil moliya strategiyasi doirasida shakllangan EGD zamonaviy global iqlim siyosatining muhim tashabbusi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishish, ya'ni issiqxona gazlari (GHG) chiqindilarini kamaytirish va kompensatsiya qilish orqali iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirishdan iborat. Shu bilan birga, EGD iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi.

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari energiya tizimini dekarbonizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, sanoatda resurs samaradorligini oshirish va aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, transport, qurilish va qishloq xo'jaligi kabi yuqori emissiyali tarmoqlarni modernizatsiya qilish muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. EGDni amalga oshirish mexanizmlari tizimli yondashuvga asoslangan.



1-jadval. EGD doirasida tartibga solish mexanizmlari va ularning xususiyatlari [2]

Mexanizm nomi	Turi	Asosiy mazmuni	Maqsadi
EU Emissions Trading System (ETS)	Bozor mexanizmi	Karbon chiqindilariga kvotalar joriy etish va savdo qilish tizimi	Issiqxona gazlari chiqindilarini iqtisodiy rag'batlar orqali kamaytirish
Yashil moliya instrumentlari	Moliyaviy	Barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun kapital jalb qilish	Yashil investitsiyalarni kengaytirish
Normativ-huquqiy tartibga solish	Huquqiy	Ekologik standartlar va majburiy talablarni belgilash	A'zo davlatlarda yagona ekologik siyosatni ta'minlash
Subsidiya va grantlar	Moliyaviy	Yashil texnologiyalar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Innovatsiyalarni rag'batlantirish
Just Transition Mechanism	Ijtimoiy-iqtisodiy	Ekologik o'zgarishlardan zarar ko'ruvchi hududlarni qo'llab-quvvatlash	Adolatli yashil transformatsiyani ta'minlash
Monitoring va hisobot tizimi	Institutsional	Emissiya va ekologik ko'rsatkichlarni nazorat qilish	Shaffoflik va samaradorlikni oshirish

Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy va huquqiy instrumentlar orqali barcha a'zo davlatlarda yagona ekologik standartlar joriy etiladi. Bunda ETS kabi bozor mexanizmlari orqali karbon chiqindilarini iqtisodiy jihatdan tartibga solish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, yashil moliya instrumentlari, jumladan, barqaror investitsiyalarni rag'batlantiruvchi fondlar, yashil obligatsiyalar va subsidiya mexanizmlari EGD maqsadlariga erishishda moliyaviy resurslarni jalb etish vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu moliyaviy mexanizmlar orqali xususiy sektorni EGD jarayonlariga jalb qilish va innovatsion yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Natijada, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanat ta'minlanadi. Bundan tashqari, EGD ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. "Just Transition Mechanism" kabi tashabbuslar orqali ekologik o'zgarishlardan eng ko'p ta'sirlanadigan hududlar va aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan. Bu esa yashil transformatsiyaning inklyuziv va adolatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, EGD nafaqat ekologik siyosat, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ham qamrab oluvchi kompleks strategiya hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar orqali Yevropa Ittifoqi nafaqat ichki iqtisodiy va ekologik maqsadlariga erishishni ko'zlaydi, balki global miqyosda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish hamda barqaror rivojlanish modelini shakllantirishga intilmoqda. EGD doirasida sanoat, energetika, transport va ekologik siyosat yo'nalishlarida ishlab chiqilgan strategiyalar kompleks yondashuv asosida o'rganiladi (2-jadval).

Mazkur strategiyalar iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarini qamrab olgan holda, ularni past karbonli va resurslardan samarali foydalanishga asoslangan modelga o'tkazishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, sanoat sohasida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, chiqindilarni kamaytirish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

2-jadval. EGD doirasidagi asosiy yo'nalishlar [2]

Yo'nalish	Asosiy maqsad	Amalga oshirish choralari	Kutilayotgan natija
Sanoat	Past karbonli va resurs samarador iqtisodiyotga o'tish	Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, chiqindilarni kamaytirish, aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish	Ekologik toza ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik oshishi
Energetika	Iqlim neytralligiga erishish	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish	Qazilma yoqilg'ilarga qaramlik kamayadi, karbon chiqindilari qisqaradi
Transport	Karbon chiqindilarini kamaytirish	Elektr transportni rivojlantirish, yashil infratuzilmani kengaytirish, logistika tizimlarini optimallashtirish	Ekologik toza transport tizimi shakllanadi
Ekologik siyosat	Atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish	Biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslarni boshqarish, ekologik standartlarni kuchaytirish	Barqaror rivojlanish va ekologik muvozanat ta'minlanadi



Energetika sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qazilma yoqilg'ilarga qaramlikni kamaytirish asosiy vazifalardan biridir. Bu orqali Yevropa Ittifoqi uzoq muddatda iqlim neytralligiga erishishni maqsad qiladi. Transport sohasida ekologik toza vositalarni rivojlantirish, elektr transport infratuzilmasini kengaytirish va logistika tizimlarini optimallashtirish orqali karbon chiqindilarini kamaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ekologik siyosat doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki iqtisodiy o'sishning barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, EGD strategiyalari turli sohalarda tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish orqali Yevropa Ittifoqining global iqlim siyosatidagi yetakchiligini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bu tajriba O'zbekiston uchun ham yashil transformatsiya metodologiyasi sifatida muhimdir. EU bilan hamkorlik doirasida O'zbekistonning eksport va import tuzilmasida EGD talablariga mos keluvchi sektorlar bir nechta asosiy yo'nalishlar bilan ajralib turadi. Bu esa mamlakatning savdo-iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonning EGD talablariga mos eksport va import tarmoqlar tuzilmasi va ularning xususiyatlari

Tarmoq nomi	Eksport mahsulotlari	Import talabi	EGD bilan mosligi
Energiya va qayta tiklanuvchi energiya	Quyosh panellari, shamol turbinalari komponentlari, bioyoqilg'i, energiya samaradorligi texnologiyalari	Yashil energiya texnologiyalari va jihozlari	Karbon chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish
Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat	Organik va ekologik mahsulotlar: paxta, don, meva-sabzavot	Barqaror qishloq xo'jaligi texnologiyalari	Barqaror qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik standartlarga moslashuv
Sanoat va ishlab chiqarish	Kimyo sanoati mahsulotlari, avtomobil va mashina qismlari, polimerlar, metallurgiya mahsulotlari	Energiya tejavchi va karbon neytral ishlab chiqarish uskunalar	Sanoat chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish
Transport va logistika	Elektr transport vositalari va komponentlari, velosipedlar, transport infratuzilmasi texnologiyalari	Karbon neytral transport vositalari va infratuzilma yechimlari	Karbon chiqindilarini kamaytirish, yashil transport tizimini rivojlantirish
Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish	Qayta ishlangan materiallar, ekologik toza qadoqlash mahsulotlari	Qayta ishlash texnologiyalari va chiqindilarni kamaytirish uskunalar	Sirkulyar iqtisodiyot, chiqindilarni kamaytirish, barqaror ishlab chiqarish

EGD doirasida O'zbekiston uchun bir qator imkoniyatlar mavjud. Energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh panellari, shamol turbinalari, bioyoqilg'i va energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar eksport va import uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Transport sohasida elektr vositalar, velosipedlar va transport infratuzilmasi, sanoatda esa kimyo, avtomobil qismlari, polimerlar va metallurgiya mahsulotlari EGD talablariga mos ravishda ishlab chiqarilishi hamda karbon neytral texnologiyalar import qilinishi orqali barqarorlikni oshiradi.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorida ekologik va organik mahsulotlar eksport salohiyatini kuchaytiradi, barqaror qishloq xo'jaligi texnologiyalari esa import orqali raqobatbardoshlikni oshiradi. Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish sektorida sirkulyar iqtisodiyot texnologiyalari va ekologik toza mahsulotlar eksportga yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, EGD O'zbekiston va EU o'rtasida moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishga imkon yaratadi. EU–Central Asia Summit va EIB loyihalari doirasida barqaror transport, suv boshqaruvi va iqlim chidamliligi loyihalariga jami 365 mln yevro ajratilgan, jumladan, 175 mln yevro suv va Orol dengizi loyihalariga, 40 mln yevro esa kichik transport loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi [15].

Natijada, EGD energiya samaradorligi, karbon chiqindilarini kamaytirish va ekologik standartlarga muvofiqlik orqali O'zbekiston mahsulotlari hamda sanoat sektorining eksport salohiyatini oshirish, Yevropa bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash hamda yashil infratuzilma va xususiy sektor faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

EGD tashabbusi O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Ushbu strategiya orqali moliyaviy instrumentlar, jumladan, kreditlar, yashil obligatsiyalar, grantlar va subsidiya mexanizmlaridan integratsiyalashgan holda foydalaniladi. Bu resurslar nafaqat yashil investitsiyalarni rag'batlantirish va iqlim neytralligiga erishishga, balki energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

EGD doirasida ishlab chiqilgan asosiy talablar sanoat, energetika, transport va ekologik siyosat yo'nalishlarini qamrab oladi. Sanoat sohasida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, chiqindilarni kamaytirish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Energetika sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va qazilma yoqilg'ilarga qaramlikni kamaytirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Transport va logistika sohalarida elektr transport vositalari, yashil infratuzilma hamda karbon neytral yechimlarni rivojlantirish orqali ekologik toza transport tizimini shakllantirish maqsad qilinadi. Ekologik siyosat doirasida esa atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlar iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Umuman olganda, EGD tajribasi O'zbekiston uchun yashil transformatsiya, barqaror eksport strategiyasi va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirishda muhim metodologik hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat ichki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, balki mamlakatning global savdo maydonidagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations. Key Aspects of the UN Green Economy Approach: 2020 Context. New York: United Nations, 2020. – 24 p.
2. European Commission. The European Green Deal. Brussels: European Commission, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. Kate Aronoff, Alyssa Battistoni, Daniel Aldana Cohen, Thea Riofrancos, Naomi Klein. A Planet to Win: Why We Need a Green New Deal. London: Verso, 2019.
5. Costas Zografos, Paul Robbins. Green sacrifice zones, or why a green new deal cannot ignore the cost shifts of just transitions // One Earth. – 2020. – Vol. 3(5). – P. 543–546.
6. Mark Leonard, Pierre-Francois Jean, Jeremy Shapiro, Simone Tagliapietra, Guntram Wolff. The Geopolitics of the European Green Deal. Policy Contribution, No. 04/21, 2021.
7. Max Ajl. A People's Green New Deal. London: Pluto Press, 2021.
8. Riccardo Mastini, Giorgos Kallis, Jason Hickel. A green new deal without growth? // Ecological Economics. – 2021. – Vol. 179. – Article 106832.
9. Kaisa Tienhaara, J. Robinson (eds.). Routledge Handbook on the Green New Deal. London: Taylor & Francis, 2022.
10. K. Moesker, U. Pesch. The Just Transition Fund – did the European Union learn from Europe's past transition experiences? // Energy Research & Social Science. – 2022. – Vol. 91. – 102750. <https://doi.org/10.1016/j.erss.2022.102750>
11. K. Yoon. Discourse of the post-COVID-19 new deal in South Korea (East Asia). – 2021.
12. L. Zhang, M. Xu, H. Chen, Y. Li, S. Chen. Globalization, Green Economy and Environmental Challenges: State of the Art Review for Practical Implications // Frontiers in Environmental Science. – 2022. – Vol. 10. – Art. 870271. DOI: 10.3389/fenvs.2022.870271
13. Jasurbek Ataniyazov. The main directions of the "European Green Deal" and its financial aspects. – 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14779712>
14. Anadolu Agency. Official website: www.aa.com.tr
15. European External Action Service. Official website: www.eeas.europa.eu



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>